

ONAJONIMGA

SABOHAT HUSANOVA

JDPI O'zbek tili va
dabiyoti fakulteti talabasi

Bir parchaligimdan to umrimning so'ngiga qadar meni ko'z qorachig'idek asrab avaylagan, onam, Go'daklik chog'imdan tunlarni bedor o'tkazgani yetmaganidek, bemor bo'lganimda ham boshimda parvona bo'lgan, onam. Har gal qo'llarini ko'kka ko'tarib o'zining sog'ligini emas, mening baxtimni tinmay so'ragan, onam. Bu dunyo qo'ygan sinov toshidan urilib qoqilsam meni suyab qolguvchi, tog'im, onam. Tug'ilgan kunida yoki bayramida bittagina gulni bersam ham bir dunyo sovg'a olgandek quvongan, onam. Kech kelsam yo'llarimga intizor bo'lib kutguvchi, vafodor, onam. Ba'zan bu hayotdan charchasam, boshimni ko'ksiga qo'yib, erkalab, sochlarimni silab-siypalab o'tirguvchi, mehribon, onam.

Aslida boshingizdagi har bitta oq tola mening dardlarim yig'indisi emasmi, onajon bilmayman shuncha mehrni qayerdan olgansiz. O'g'lingizga ham qizingizga ham hatto nabirangizga ham birdek mehringizni ulashsangizda lekin mehr daryoyingiz hech tugamaydi. Aksincha berganingiz sari to'lib boraveradi. Sizning nurli yuzingizga boqsam dilimdagi anduhlar o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi. Siz mening borlig'im boshimdagi nur sochar tojimsiz onajon.

Biron yumish bilan qayergadir ketgan bo'lsangz, fayz yo'qolgandek bo'lib uyimiz ham xuvillab, sizni sog'inadi. Doim yonginamda bo'ling jannatim onam. Ostonadan qadam tashlamasimdan oldin, ikki qo'lini duolarga ko'targan, jahonim onam. Sizning chin dildan qilgan duolaringizga doim muhtojman, onam. Ba'zan biz farzandlaringiz o'zimiz bilan bo'lib, sizdan hol-ahvol ham so'rolmaymiz. Vaqtimiz yo'qligini pesh qilamiz onajonim. Dilingizni og'ritgan bo'lsak kechiring. Mana hozir o'g'lingizning nomidan ham qizingizning nomidan ham dilimizda pinhon tutgan gapni aytaman: „MEN SIZNI JUDAYAM YAXSHI KO'RAMAN. TENGSIZIM, BAHORIM, ONAM” Mayli meni qiynagin hayot,

qiyrog'ingga bardosh beraman, lek onamni qilgin ehtiyot men onamni yaxshi ko'raman. Dardim bo'lsa kuyungan onam, quvonch bo'lsa suyungan onam, munisgina mening yagonam, men onamni yaxshi ko'raman. Mayli meni sevmasin yorim, mayli darddan qiynalsin tanim, faqat azob chekmasin onam, men onamni yaxshi ko'raman. Hayot sendan bitta o'tinchim, onam mening baxtim, suyanchim, ehtiyot qil mening quvonchim, men onamni yaxshi ko'raman. Onajon sizni "Lolacha qizim" deb chaqirishlaringizni sog'indim....

MEHRIBONIM sizni JUDAYAM Sog'indim. Hozir sizdan birozgina uzoqdaman. Bilaman katta hayotda qiynalmasin O'qib odamlarga foydasi tegsin deb masofani ham o'ylamay o'qishga yubordingiz. Onajon, Sizni sog'inib ketdim. Aytganingizdek men hali ishonchingizni oqlab buyuk inson bo'laman. ONAJON... Hurmat bilan "Lolacha" qizingiz Sabohat...